



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– avgust holatiga

RAQAMLAR:


- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1810 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **-0,9 f.p kamaygan.**
- Tugatilgan korxonalar nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1679 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-avgust oyida viloyatimizda yilning boshiga nisbatan 2129 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, ona va tashkilotlar soni 1810 ta (9,8 %) ga o'sgan hamda davriga nisbatan 463 taga ko'pdir. Buning natijasida joriy faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 20281 tani tashkil etgan.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning asosiy ulushi Qarshi shahrida (21,3 %), Koson (37,9 %) ga kamaygan (8,6 %), Chiroqchi (7,9 %) hamda ularning soni 450 va Qarshi (7,6 %) tumanlarida tashkil etganligini kuzatish mumkin.



Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 sentyabr holatiga)

| | Ro'yxatdan o'tgan | | Faoliyat ko'rsatayotgan | |
|-------------------------------|-------------------|-------------------|-------------------------|-------------------|
| | birlikda | jamiga nisbatan % | birlikda | jamiga nisbatan % |
| Qashqadaryo viloyatida | 20869 | 100,0 | 20281 | 100,0 |
| Qarshi shahar | 4528 | 21,7 | 4329 | 21,3 |
| Shahrisabz shahar | 1336 | 6,4 | 1326 | 6,5 |
| tumanlar: | | | | |
| G'uzor | 940 | 4,5 | 887 | 4,4 |
| Dehqonobod | 1040 | 5,0 | 958 | 4,7 |
| Qamashi | 1389 | 6,7 | 1374 | 6,8 |
| Qarshi | 1553 | 7,4 | 1534 | 7,6 |
| Koson | 1763 | 8,4 | 1746 | 8,6 |
| Kitob | 1473 | 7,1 | 1465 | 7,2 |
| Mirishkor | 631 | 3,0 | 618 | 3,0 |
| Muborak | 796 | 3,8 | 760 | 3,7 |
| Nishon | 738 | 3,5 | 719 | 3,5 |
| Kasbi | 728 | 3,5 | 700 | 3,5 |
| Chiroqchi | 1639 | 7,9 | 1593 | 7,9 |
| Shahrisabz | 913 | 4,4 | 896 | 4,4 |
| Yakkabog' | 1402 | 6,7 | 1376 | 6,8 |

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 97,2 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 2,8 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar ulushi $-0,9$ ga kamaygan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,1 % savdoda, 12,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 12,2 % qurilishda, 11,5 % sanoatda, 4,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,6 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa va 29,3% boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-avgust holatiga 2129 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 27,8 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Qarshi shahrida (442 ta), Chiroqchi (191 ta), Yakkabog' (163 ta) va Koson tumanlarida (153 ta) tashkil etilgan. Eng kam Kasbi (76 ta), Mirishkor (78 ta) hamda Dehqonobod (82 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (349 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (333 ta), sanoatda (317 ta), qurilishda (297 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (94 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (22 ta), tashish va saqlashda (51 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (69 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

| | 2017 yil yanvar-avgust holatiga | 2018 yil yanvar-avgust holatiga |
|--|---------------------------------|---------------------------------|
| Jami: | 1666 | 2129 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 372 | 333 |
| Sanoat | 330 | 317 |
| Qurilish | 201 | 297 |
| Savdo | 285 | 349 |
| Tashish va saqlash | 54 | 51 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 106 | 94 |
| Axborot va aloqa | 36 | 22 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 37 | 69 |
| Boshqa turlari | 245 | 597 |

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari).


2018 yil 1 sentyabr holatiga 16216 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 7097 ta, oilaviy korxonalar – 635 ta, mas`uliyati cheklangan jamiyatlar – 7607 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 42 tani va boshqalar 835 tan tashkil etadi.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 sentyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 68 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 17 taga yoki 33,3 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 50 tasi qo'shma korxonalar, 18 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Qarshi shahar 26 ta (36,1 %), Kitob tumani 10 ta (14,1 %), Qarshi tumani 6 ta (8,5 %), Qamashi tumani 5 ta (7,0 %), Shahrisabz shaharlari 4 ta (5,6 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Dehqonobod tumanlari 1 ta (1,4 %) Yakkabog', Koson, Nishon, Kasbi, Chiroqchi, Shahrisabz tumanlarida 2 ta (2,8 %) hissalariga to'g'ri keladi. Mirishkor tumanida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilmagan. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 sentyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 42 ta (62,8 %), savdoda 10 ta (14,7 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 7 ta (10,3 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda hamda axborot va aloqada 1 ta (1,5 %), qurilish hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari 2 ta (2,9 %), boshqa turlar 3 ta (4,4 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yilning yanvar-avgust oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni 15 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11 taga ko'paygan yoki 7,5 baravarga oshgan.

Bunda, AQSh va Afg'oniston rezidentlari kapitali ishtirokida – 1 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 5 ta, Janubiy Koreya Respublikasi– 3 ta, Rossiya Federatsiyasi - 3 ta, Birlashgan Arab Amirligi - 2 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 sentyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 16076 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 sentyabr holatiga qaraganda 9,4 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 3570 tasi (22,3 %) Qarshi shahriga, 1428 tasi (8,9 %) Koson, 1290 tasi (8,0 %) Qarshi hamda 1226 tasi (7,6 foizi) Chiroqchi, 1151 tasi (7,2 foizi) Kitob tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 16076 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4652 tasi (28,9 %) – savdoda, 2536 tasi (15,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 2459 tasi (15,3 %) - qurilishda, 2292 tasi (14,3 %) - sanoatda, 821 tasi (5,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 720 tasi (4,5 %) - tashish va saqlashda, 338 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 229 tasi (1,4 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 2029 tasi (12,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-avgust holatiga 1995 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 8,1 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahrida (408 ta), Chiroqchi (160 ta), Yakkabog' (156 ta) va Koson tumanlarida (148 ta) tashkil etilgan. Eng kam Kasbi (72 ta), Dehqonobod (75 ta) hamda Mirishkor (76 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (349 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (332 ta), sanoatda (317 ta) va qurilishda (297 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (22 ta), tashish va saqlashda (51 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (68 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 sentyabr holatiga 647 tani tashkil etib, ulardan 635 tasi yoki 98,1 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **26,7** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 28,7 % yoki 182 tasi sanoat, 18,7 % yoki 119 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,4 % yoki 117 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 16,1 % yoki 102 tasi savdo, 2,5 % yoki 16 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 1,7 % yoki 11 tasi qurilish, 1,6 % yoki 10 tasi tashish va saqlash, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa hamda 12,0 % yoki 76 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

(0371) 230-84-11
(0375) 221-17-93

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYaDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan